



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 184 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O'YIN FAOLIYATIDA IJTIMOIY MOTIVLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Abduvaxobova Nodira

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshida o'yin faoliyatining ahamiyati, uning do'stona munosabatlarni shakllantirish, jamoa hayoti malakalari va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'yin faoliyati, ijtimoiy motiv, ijtimoiy munosabatlar, rolli o'yinlar, hamkorlikda bajariladigan o'yinlar, qoidali o'yinlar, hikoya va ertaklarga asoslangan o'yinlar, taqlidiy va ijodiy o'yinlar.

Abstract: This article discusses the importance of play in preschool age, its role in fostering friendly relationships, developing teamwork skills and organizational abilities, as well as the methods of forming social motives in preschool children's play activities.

Key words: play activity, social motive, social relations, role-playing games, cooperative games, rule-based games, story- and fairy tale-based games, imitative and creative games.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение игры в дошкольном возрасте, её роль в воспитании дружеских отношений, формировании навыков коллективной жизни и организаторских способностей, а также методы формирования социальных мотивов в игровой деятельности детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: игровая деятельность, социальный мотив, социальные отношения, ролевые игры, совместные игры, игры по правилам, игры на основе рассказов и сказок, подражательные и творческие игры.

KIRISH

O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga ega. Uni "bolalikning hamrohi" deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'plab jiddiy ishlar o'yin shaklida amalga oshiriladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad va unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini va tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi – har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka va o'rtoqlariga nisbatan javobgarlikni his etishga asoslangan munosabatlarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'yin faoliyati bolada ijtimoiy motivlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish bo'yicha bir qator tadqiqotchilar izlanishlar olib borgan. Jumladan, Lev Vygotskiy ishlarida bolani ijtimoiy jihatdan o'rganish nazariyasi orqali bolalarning rivojlanishida o'yin va ijtimoiy muloqotning ahamiyati ta'kidlangan. Uning fikricha, o'yin bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Jean Piagetning rivojlanish nazariyasi bolalarning o'yin orqali dunyoni qanday tushunishini o'rganishga qaratilgan. U o'yinlarni kognitiv rivojlanishning muhim qismi deb hisoblagan.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi bolalarning o'yin orqali ijtimoiy identifikatsiya va shaxsiy rivojlanishini tushuntiradi.

Sara Smilansky esa bolalar o'yinlarini to'rt turga ajratgan: funksional, konstruktiv, dramatik va qoidali o'yinlar. U ijtimoiy va kognitiv rivojlanish uchun dramatik o'yinlarning ahamiyatini ta'kidlagan.

Mildred Parten bolalarning o'yin rivojlanishini ijtimoiy ishtirok darajasi bo'yicha tasniflagan. U ijtimoiy o'yinlar orqali bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rgangan.

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblagan. Uning fikricha, o'yin – bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir. O'yinda borliq va dunyo haqidagi tasavvurlar kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida teng-qurlari bilan do'stlashadi. Y.A. Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni va ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan.

P.F. Lestgaft esa bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettirishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Bu olimlar va ularning tadqiqotlari bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish jarayonini tushunishga katta hissa qo'shgan.

O'zbek olimlari orasida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati va ijtimoiy rivojlanishiga oid bir qator tadqiqot ishlari mavjud. Jumladan, G'ulomjon Yo'ldoshev O'zbekistonda bolalar psixologiyasi va pedagogikasi bo'yicha izlanishlar olib borgan bo'lib, u bolalarning ijtimoiy rivojlanishida o'yin faoliyatining ahamiyatini tadqiq qilgan.

Zulfiya Xodjayeva o'z ishlarida maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalari va ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borgan.

Dilbar Sodiqova esa bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasida, xususan, o'yinlarning ijtimoiy motivlarni shakllantirishdagi rolini o'rgangan.

Yuqoridagi ishlarning tahlilidan shu narsa aniq bo'ladiki, O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish yuzasidan yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kuzatish, qiyosiy tahlil, diagnostik (anketa, suhbat, so'rov), loyihalash, modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan, shuningdek, tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlildan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining barcha tomonlari o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuza-tish orqali uning qiziqishlarini, tevarak-atrof haqidagi tasavvurini, kattalarga va tengdoshlarga bo'lgan muno-sabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biror sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa jihatlarini ham rivojlantirish zarur. Masalan, bolaning o'yinga qiziqishini, tashkiliy qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmunan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa, o'z navbatida, yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shu sababli bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida o'yin munosib o'rin egallaydi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish muhim jarayondir. Bu yoshda bolalar o'zaro muloqot va hamkorlik orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu jaray-onni qo'llab-quvvatlash usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1. Rolli o'yinlar.** Bu jarayonda bolalar turli rollarni ijro etib, ijtimoiy vaziyatlarni tushunishni o'rganadilar. Ularning tasavvuri rivojlanadi va empatiya hissi oshadi. Masalan, "Oila" o'yinida bolalar ota-ona, bola, buvi kabi rollarni o'ynab, oilaviy munosabatlarni tushunadilar. "Kasb-kor o'yinlari"da esa shifokor, o'qituvchi yoki politsiyachi kabi kasblarni o'ynab, kasblarning ijtimoiy ahamiyatini anglaydilar.
- 2. Hamkorlikda bajariladigan o'yinlar.** Bunday o'yinlar bolalarga birgalikda ishlash, muvofiqlashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, "Qurilish" o'yinlarida bolalar birgalikda qum yoki bloklardan inshootlar qurib, jamoaviy ishni o'rganadilar. "Tabiatni himoya qilish" o'yinida esa, birgalikda bog' yaratish yoki daraxt ekish orqali tabiatga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar.



3. **Muammoli vaziyatlar.** Bunday o'yinlarda bolalar muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali mantiqiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat hissini oshiradilar. Masalan, "Yo'l harakati" o'yinida bolalar yo'l qoidalarini o'rganib, xavfsizlik masalalarini muhokama qiladilar. "Nizolarni hal qilish" o'yinida esa, kelib chiqadigan nizolarni muhokama qilish va ularni hal etish yo'llarini o'rganadilar.
4. **Qoidali o'yinlar.** Bunday o'yinlar orqali bolalarda qoidalarga rioya qilish, ijtimoiy intizom va adolat tushunchalari rivojlanadi. Masalan, sport o'yinlari – futbol yoki basketbol orqali jamoaviy qoidalarga rioya qilishni o'rganadilar. Stol o'yinlari – shaxmat yoki ludo orqali esa strategik fikrlash va qoidalarga amal qilish ko'nikmalarini egallaydilar.
5. **Hikoya va ertaklar asosidagi o'yinlar.** Bu o'yinlarda bolalar turli his-tuyg'ularni tushunadilar va empatiyani rivojlantiradilar. Ular sevimli ertak qahramonlarining rollarini o'ynab, ularning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiladilar. Shuningdek, o'z hikoyalarini yaratib, ijodkorlik va ijtimoiy vaziyatlarni tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.
6. **Taqlid va ijodiy o'yinlar.** Bunda ijtimoiy vaziyatlarni tasavvur qilish orqali ijodkorlik rivojlanadi. Masalan, "Shifokor" o'yinida bolalar kasal bo'lgan do'stlarini davolash orqali g'amxo'rlik va yordam berish hissini tarbiyalaydilar. "Teatr sahnalari"da esa kichik sahnalarni qo'yib, turli ijtimoiy vaziyatlarni ifodalaydilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati ularning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, rolli, hamkorlikka asoslangan, muammoli, qoidali, hikoya va ertak asosidagi, shuningdek, taqlid va ijodiy o'yinlar orqali bolalarda ijtimoiy motivlar shakllanadi. Bu jarayon bolalarda empatiya, hamkorlik, intizom, adolat va mas'uliyat kabi ijtimoiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv bolalarning nafaqat o'yin jarayonida, balki kundalik hayotida ham ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlash, o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, muammolarni hal qilish va jamoada faol ishtirok etishga tayyorlash imkonini beradi. Shu bois, tarbiyachilardan o'yin faoliyatini puxta rejalashtirish, uni to'g'ri tanlash va samarali tashkil etish talab etiladi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim jarayonida o'yin faoliyati asosida ijtimoiy motivlarni shakllantirish bola shaxsining har tomonlama kamol topishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu esa kelgusida jamiyatga ijtimoiy faol, mas'uliyatli va ongli shaxsni yetishtirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahimova, D. (2020). Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
2. Abidov, B.K. (2017). Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi). Zamonaviy ta'lim, (11), 35. Toshkent.
3. Berdaliyeva, G.A. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 12–14.
4. Djurayev, R., & Torejonova, R. (2009). Bolalarning axloqiy tarbiyasida xalq udumlari va an'analaridan foydalanish. Xalq ta'limi, (2), 103. Toshkent.
5. Irisbayeva, M.N. (2020). Ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 12–13.
6. Jamoldinova, O. (2015). Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
7. Komenskiy, Y.A. (1982). Izbrannyye pedagogicheskie sochineniya (2 jildlik). Moskva.
8. Mardonova, G.A. (2020). Oilada bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 12–15.
9. Nazirova, M.G. (2019). Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 18–20.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.